



KOREYS TILIDA ENANTIOSEMIYA HODISASI

Kim Tatyana Sergeevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Aliqulova Feruza Abror qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys tilshunosligida enantiosemianing alohida tadqiq obyekti sifatida o'r ganilishi haqida so'z yuritilib, koreys tilida uchraydigan enantiosemialardan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: zid ma'nolilik, antonimiya, enantiosemia, ma'noviy zidlik, shakliy zidlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается изучение энантиосемии как отдельного объекта исследования корейского языкоznания, приводятся примеры энантиосемий, встречающихся в корейском языке.

Ключевые слова: противоположность, антонимия, энантиосемия, смысловое противоречие, формальное противоречие.

Borliqda kuzatishimiz mumkin bo'lgan qarama-qarshilik va ziddiyatlar dunyo taraqqiyotining asosiy mezonlaridan hisoblanib, ushbu qarama-qarshiliklar qonuni tilda ham o'z aksini topgan. Ziddiyat masalasi antik davrlardan boshlab faylasuflar e'tiborini tortgan, ular qarama-qarshilik tushunchasini falsafa va mantiq fanlari doirasida o'rgana boshlaganlar. Xususan, Suqrotning fikricha, ziddiyatga sabab bo'lувчи, uni ifodalovchi tushunchalar biri-ikkinchisidan kelib chiqqan yoki birining borligi uchun boshqasi mavjud. Masalan, kichik tushunchasi katta tushunchasidan kelib chiqqan, ya'ni katta bo'limganda kichik ham bo'lmas edi. Olamdagи barcha narsalar o'z ziddiga ega bo'lib, ziddiyat a'zolari kishilar ongida bir juft holida turadi, bir tushunchaning faqat bitta ziddi bo'ladi, ya'ni yaxshining yomondan, balandning pastdan boshqa ziddi yo'q [1, b.13]. Tildagi qarama-qarshilik masalasi keyingi davrlarga kelib keng o'r ganila boshlagan bo'lib, bunda asosan antonimlar yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar yetakchilik qiladi. Ammo, tilshunoslikda yana bir qadimiy ziddiyat turi mavjud bo'lib, lingvistik adabiyotlarda ushbu hodisa enantiosemia deb ataladi.

Enantiosemia – bir so'zda ikki qarama-qarshi ma'noning aks etish hodisasi. Ushbu atama tilshunoslikka 1883-yilda rus olimi V.Shchersl tomonidan olib kirilgan (yunoncha en – "ichdag'i", anti – "qarama-qarshi, sema – "belgi"). Koreys tilshunosligida antonimlar bilan bog'liq o'r ganishlar ko'p bo'lsa-da, enantiosemia hodisasi bugungi kungacha faqat Do Jae-hak [2], Li Min-u [3], Li son-yong [4] ning ishlaridagina uchraydi. Jumladan, Li Min-u koreys tilidagi so'z ichidagi zid ma'nolilikni ma'no jihatidan 3 turga bo'ladi:





- 1) 상보 대립 – komplementar qarama-qarshiliklar (“지다” so‘zi bir vaqtning o‘zida “paydo bo‘lish”, “yaralish” va “yo‘q bo‘lib ketish” ma’nolari mavjud);
- 2) 반의 대립 – qarama-qarshi ma’nolik (“너무” “juda” so‘zi ham ijobiy ham salbiy ma’noni bildirib kela oladi);
- 3) 방향 대립 – vektorli zid ma’nolilik (“앞” “oldin”, “ilgari” so‘zi ham o‘tmishga nisbatan ham kelajakka nisbatan qo’llanilishi mumkin).

Shuningdek, olim enantiosemiyani shakliy jihatiga ko‘ra lug’aviy enantiosemiya, grammatik enantiosemiya va kontekstual enantiosemiyaga ajratadi. Li song-mun esa enantiosemiya hodisasini faqat tuzilish jihatidan turlarga ajratib o‘rganadi.

Do Jae-hak ma’noni yuzaga chiqish tabiatiga ko‘ra asosiy ma’no, kontekstual ma’noga bo‘lib, qarama-qarshi ma’no kuzatiladigan so‘zlarni **상보적 대립** (komplimentar zidlik), **상반적 대립** (qarama-qarashi ma’noli zidlik), **상관적 대립** (aloqadorlik asosidagi zidlik), **정도적 대립** (gradual zidlik) kabi 4 turga bo‘lib o‘rganadi. Quyida ushbu turlar asosida koreys tilida uchraydigan enantiosemiyalardan misollar keltirib o‘tamiz.

1. 상보적 대립 (komplimentar zidlik) – “값 없다”

- 1) 가치가 없다 (qiymati yo‘q, qadrsiz, arzon)
이따위 물건은 값없어.

Bunday mahsulotning qiymati yo‘q.

- 2) 가치가 있다 (juda qiymatli, bebah, qimmat)
이건 아무데서나 살 수 없는 값없는 물건 이야.

Bu narsa hamma yerda ham sotib olishni iloji bo‘lmaydigan juda qiymatli buyum.

2. 상반적 대립 (qarama-qarashi ma’noli zidlik) – “앞”

- 1) 이미 지나간 시간 (allaqachon o‘tib bo‘lgan vaqt, o‘tmish)
우리는 앞에 간 사람들보다 먼저 도착하였다.

Biz ertaroq ketib bo‘lgan odamlardan ko‘ra birinchi bo‘lib yetib keldik.

- 2) 장차 올 시간 (kelajak)
일 년 앞을 내다보다.

Bir yildan keyin nima bo‘lishini taxmin qilib ko‘raylik.

3. 상관적 대립 (qarama-qarashi ma’noli zidlik) – “임대하다”

- 1) 빌리다 (ijaraga olmoq)
정호는 파견 근무가 끝날 때까지 당분간 아파트를 임대해서 생활하기로 했다.

Chonho xizmat safari tugagunga qadar bir muddat biror kvartirani ijaraga olib yashashga qaror qildi.

- 2) 빌려주다 (ijaraga bermoq)
건물주는 건물을 전체를 은행에 임대하였다.

Bino egasi binoning barcha qismini bankka ijaraga berdi.

4. 정도적 대립 (gradual zidlik) – “돈푼”





1) 어느 정도 되는 돈, 또는 꽤 많은 돈 (ko'p miqdordagi pul)
그는 예전에 돈푼깨나 만졌다.

U avvallari anchagina boy edi.

2) 얼마 되지 않는 돈 (kam miqdordagi pul)
왕한은 돈푼이나 더 줄까 하고 그 학생의 얼굴만 쳐다보았다.

Vanghan yana biroz pul bersammikan deb o'quvchining yuziga tikildi.

Xulosa qilib aytganda, enantiosemiyalar koreys tilshunosligida alohida tadqiq qilinmagan, enantiosemiyaga bo'lgan qarashlar turlichalib, aniq bir to'xtamga kelinmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Odilov Y.R. O'zbek tilida enantiosemiya: Filol. fan. d-ri. ...diss. – T., 2016. – 245 b.
2. 도재학. 현대 국어 다의어의 대립적 의미관계 연구, 고려대학교 석사학위논문, 2011.
3. 이민우. 어휘 의미의 자체대립 유형 연구, <<어문논집>> 11, 중앙어문학회, 2011.
4. 이선영. 국어의 모순어의 대하여, <<국어학>> 61, 국어학회, 2011.

